Mamlakatimizning eksport imkoniyatlari va muammolari.....	964
Ansabxon ZAKIROV	
Цифровизация и прогнозные параметры экспортного потенциала субъектов малого бизнеса	967
Мирзахаликов Бобир Бахтиёрович	
Зелёный энергопереход как фактор устойчивого развития энергетики Узбекистана.....	971
Юсупов Ёкуб Рустамович	
Модели и тенденции развития формирующихся финансовых рынков	978
Кадилова Хадича Тураевна	
Yashil iqtisodiyot xususiyatlari va rivojlanish omillari.....	983
Israilova Shoira Turg'unovna	
Davlat moliyaviy nazorati organlarining samaradorligini oshirish yo'nalishlari.....	987
Zuparov Abzaljon Batirjonovich	
Методика расчета устойчивого развития предприятий тэк на основе сводных интегральных индексов.....	991
Г.Ж. Аллаева	
Chet mamlakatlar pensiya tizimining o'ziga xos xususiyatlari.....	995
Tursunov Zohidxo'ja Orifovich	
Davlat fiskal va monetar siyosatining vujudga kelishi.....	1002
Xudaybergenova Nigora Turgunboyevna	
Aksiyadorlik jamiyatlarining innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda banklarning rolini oshirish	1005
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	
Xarajatlar hisobini mhxs asosida tan olishning o'ziga xos xususiyatlari	1010
Xaydarova Surayyo Nasirdinovna	
Zamonaviy turizm yo'nalishlari yangiliklarini sohaga tadbqiq etish va turizm bozorini rivojlantirishda aqlli (smart) texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati.....	1016
Sangirov Utkir Xudoyberdiyevich	
Sanoat korxonalarining raqobatdoshligini ta'minlash salohiyati	1021
To'raev Sardorbek To'raevich	
Kichik biznes subyektlari faoliyatini innovatsion rivojlantirish omillari	1025
Musayev Ozodjon Shavkat o'g'li	
Agrar soha taraqqiyotida xorijiy investitsiyalarning roli.....	1031
Ko'chqarov Fayzullo Abdujabborovich, Mamatov Baxadir Safaraliyevich	
Оценка влияния введения цифровой валюты на денежную сферу	1041
Якубова Ш.Ш.	
Importance of staff service quality at uzbek national restaurants in uzbekistan.....	1046
Shodiyona Sanginova	
Budjet tashkilotlarida qurilish-ta'mirlash xarajatlari hisobining asoslari.....	1051
Azizova Zilola Lochin qizi	
Biznes sohasi uchun oliy ma'lumotli boshqaruv kadrlarini sifatli tayyorlash masalalari.....	1057
Shabnam Djumaniyazova	



Hududlarda kichik va o'rta biznesni rivojlantirishda xorijiy tajriba.....	1064
Bozorov Ilyos Isomiddinovich	
To'qimachilik mahsulotlarini xalqaro sifat standartlari asosida yevropa ittifoqiga eksport qilish imkoniyatlari.....	1071
Raximova Moxigul Isroiljanovna	
Natural Language Processing of Cognitive Metaphors in Eco-Marketing	1074
Bakhtiyor Djurakulovich Safarov, Abdusaidova Gulhayo Bakhridin qizi	
Sug'urta kompaniyalarning investitsion faoliyatining mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni	1079
Samijonov Musobek G'ayratjon o'g'li	
Investitsiya portfelini shakllantirishda moliyaviy risklarni boshqarishning chiziqsiz modellari	1083
Shirin Zafar qizi Tursunxodjayeva	
Pestel tahlili – muvaffaqiyatli investitsiya qarorlarini qabul qilish asosi	1090
Shaislamova Nargiza Kabilovna	



PESTEL TAHLILI – MUVAFFAQIYATLI INVESTITSIYA QARORLARINI QABUL QILISH ASOSI

Shaislamova Nargiza Kabilovna

“Baholash ishi va investitsiyalar” kafedrası dots.nti, PhD TDIU

Annotatsiya: Mazkur maqolada PESTEL tahlilining muvaffaqiyatli investitsiya qarorlarini qabul qilishdagi ahamiyati tahlil qilingan. PESTEL tahlili – bu siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik, ekologik va huquqiy omillarni hisobga olgan holda biznes muhitini baholashda qo'llaniladigan samarali vosita hisoblanadi. Har bir omilning roli va ularning investitsiya qarorlariga ta'siri o'rganilgan. Mazkur tahlilning to'g'ri qo'llanilishi orqali bizneslarning kelajakdagi istiqbolli rivojlanish strategiyalari aniqlanadi va xavflarning kamaytirilishi ta'minlanadi. Shu bilan birga, investitsiyalarning barqarorligi va samaradorligi oshishiga hissa qo'shadi.

Kalit so'zlar: PESTEL tahlili, investitsiya qarorlari, siyosiy omillar, iqtisodiy omillar, ijtimoiy omillar, texnologik omillar, ekologik omillar, huquqiy omillar, biznes muhiti, xavflarni kamaytirish.

Abstract: This article analyzes the importance of PESTEL analysis in making successful investment decisions. PESTEL analysis is an effective tool used to assess the business environment by considering political, economic, social, technological, environmental, and legal factors. The role of each factor and its impact on investment decisions are examined. By correctly applying this analysis, businesses can identify future development strategies and reduce risks. Moreover, it contributes to increasing the sustainability and efficiency of investments.

Key words: PESTEL analysis, investment decisions, political factors, economic factors, social factors, technological factors, environmental factors, legal factors, business environment, risk reduction.

Аннотация: В данной статье анализируется значение PESTEL-анализа для принятия успешных инвестиционных решений. PESTEL-анализ — это эффективный инструмент, используемый для оценки бизнес-среды с учётом политических, экономических, социальных, технологических, экологических и правовых факторов. Рассмотрена роль каждого фактора и их влияние на инвестиционные решения. Правильное применение данного анализа позволяет компаниям определять перспективные стратегии развития и снижать риски. Кроме того, это способствует повышению устойчивости и эффективности инвестиций.

Ключевые слова: PESTEL-анализ, инвестиционные решения, политические факторы, экономические факторы, социальные факторы, технологические факторы, экологические факторы, правовые факторы, бизнес-среда, снижение рисков.

KIRISH

O'zbekistonda iqtisodiyotni rivojlantirish va innovatsion texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish va mamlakatda yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashda ishbilarmonlik va investitsiya muhitini tubdan yaxshilashga e'tibor qaratilmoqda. Respublikaning investitsiya faoliyatini isloh qilish yuzasidan “Mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirish va qimmatli qog'ozlar bozorini jadal rivojlantirish”[1] O'zbekistonning yaqin istiqboldagi ustuvor maqsadlardan biri hisoblanadi. Mazkur vazifa ijrosini ta'minlashda mamlakatda ham xorijiy, ham mahalliy investorlar uchun qulay bo'lgan investitsiya muhitini yaratish, bu muhitga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, biznes va investitsiya muhitini yanada yaxshilashga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif-tavsiyalar ishlab chiqish zarurligini belgilab beradi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodchi-olimlar tomonidan investitsiya muhitiga ko'plab ta'rif berilgan. Masalan, A.Vaxabov, Sh.Xajibakiyev, N.Muminovlar investitsiya muhiti to'g'risida quyidagilarni ta'kidlab o'tadilar: "Investitsiya muhiti – bu xorijiy kapital qo'yilmalarining qaltislik darajasini va ulardan mamlakatda samarali foydalanish imkoniyatlarini oldindan belgilaydigan iqtisodiy, siyosiy, yuridik va ijtimoiy omillar yig'indisidir. Investitsiya muhiti kompleks, ko'p qirrali tushuncha bo'lib, milliy qonunchilik, iqtisodiy shart-sharoitlar (inqiroz, o'sish, stagnatsiya), bojxona rejimi, valyuta siyosati, iqtisodiy o'sish sur'atlari, inflyatsiya sur'atlari, valyuta kursining barqarorligi, tashqi qarzdorlik darajasi kabi ko'rsatkichlarga ega" [2].

"Investitsiya muhiti" va "investitsiya iqlimi" sinonim tushunchalar sifatida ishlatiladi. Bu xususda iqtisodchi-olimlardan D.G'ozibekov va T.Qoraliyevlar tomonidan quyidagi fikrlar bildirilgan: "Investitsiya iqlimi juda keng ma'noda ishlatiladigan tushuncha bo'lib, investor tomonidan hisobga olinadigan barcha muammo va masalalarni mujassamlashtiradi. Investor tomonidan ma'lum bir mamlakatga kapital ajratishning qulay va noqulay tomonlari belgilanadi, shu bilan bir qatorda, o'z kapitalini kiritmoqchi bo'lgan mamlakat mafkurasi, siyosati, iqtisodiyoti va madaniyatiga katta ahamiyat beriladi" [3].

Farleks moliyaviy lug'atida ushbu tushuncha quyidagicha talqin qilinadi: "Investitsiya muhiti – bu investitsiyalar amalga oshiriladigan shart-sharoit, ya'ni u makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, siyosiy vaziyat va iste'molchilar ishonchi kabi omillarni o'z ichiga oladi. Investitsiya muhiti investitsiyalarni amalga oshirishda muhim omil hisoblanadi. Qulay investitsiya muhiti investitsiyalarning o'sishiga yordam berishi, noqulay muhit esa, aksincha. Shuni ta'kidlash kerakki, investitsiya muhiti ba'zi investitsiya loyihalari uchun foydali va boshqalari uchun zararli bo'lishi ham mumkin" [4].

Amerikalik iqtisodchi olim Kempbell R.Xarvey investitsiya muhitiga: "Investitsiya muhiti – bu investitsiyalar samaradorligiga iqtisodiy, moliyaviy va boshqa omillarning ta'sir qilishi" [5], deb ta'rif bergan.

Yuqorida berilgan ta'riflarni umumlashtirib, investitsiyalarning samaradorligini va havfsizligini ta'minlovchi hamda mamlakatning investitsiya jarayonlariga ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, texnologik, huquqiy va boshqa omillar yig'indisi yoki shart-sharoitlar majmui investitsiya muhitini anglatadi, deb aytish mumkin. Demak, investitsiya muhitining mazmun-mohiyatini anglash uchun davlat yoki firma investitsiya faoliyatiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarning mazmuni va turlarini o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mazkur omillarning salbiy ta'sirini pasaytirish investitsiya muhitini yaxshilashga va qulay ishbilarmonlik va investitsiya iqlimini shakllantirishga sabab bo'ladi. Shuningdek, tashqi muhit omillarini baholash kompaniyaning biznes muhitini tahlil qilishning muhim bosqichi bo'lganligi sababli korxonada to'g'ri va ishonchli strategik qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Bugungi kunda tashqi makro muhit omillarini (imkoniyatlarni va tahdidlarni) yanada aniqroq va muvozanatli baholash uchun PESTEL, ETOM va QUEST modellaridan foydalanilib kelinmoqda [6].

TAHLIL VA NATIJALAR

Korxona investitsiya faoliyatiga qator omillar ta'siri aniqlangan bo'lib, umumiy holda korxonaga ta'sir etuvchi omillarni ikki katta guruhga birlashtirish mumkin: ichki muhit va tashqi muhit omillari.


Korxonaning ichki muhiti korxona nazorati ostida bo'lgan va uning faoliyatiga ta'sir qiladigan biznesning barcha jihatlarini o'z ichiga oladi.

Ichki muhit omillariga quyidagilar kiradi:

- korxonaning tashkiliy tuzilishi va korporativ madaniyati, shu jumladan xodimlar o'rtasidagi munosabatlar va ularning mehnatga munosabati;
- boshqaruv va qarorlar qabul qilish siyosati, shu jumladan korporativ qadriyatlar va strategiyalar;
- korxonaning moliyaviy holati va resurslari, masalan, kapital, aylanma mablag'lar, texnika va texnologiyalar;
- biznes jarayonlari, shu jumladan ishlab chiqarish jarayonlari, marketing, sotish va inson resurslari (ishchi kuchi va mutaxassislar);
- mijozlar, mol yetkazib beruvchilar, raqobatchilar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan o'zaro aloqa qilish usullari;
- korxona tomonidan taqdim etilayotgan mahsulot yoki xizmatlarning sifati va mijozlarga xizmat ko'rsatish darajasi va boshqalar.

Korxonaning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi va maqsadlariga erishishi uchun korxonadagi ichki muhit samarali va barqaror bo'lishi muhim hisoblanadi. Buning uchun xodimlarni boshqarish, jarayonlarni doimiy ravishda takomillashtirish, innovatsiyalarni rivojlantirish, kompaniyaning imiji va obro'ini ko'tarish va korxona brendi to'g'risida ijobiy fikrni shakllantirishga e'tibor berish kerak.

Korxonaning tashqi mikro va makro muhiti – bu tashkilot faoliyat yuritadigan va uning biznes jarayonlariga ta'sir qiladigan umumiy muhit hisoblanadi.



1- rasm. Korxona faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarning umumlashgan holdagi tasviri¹.

Tashqi mikro muhit kompaniyaga ta'sir qiluvchi bevosita omillarni ifodalaydi. Bularga korxonani mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan resurslar bilan ta'minlovchi mol yetkazib beruvchilar, korxona mahsulotini sotib oluvchi xaridorlar, bozorda korxona mahsulotlariga o'xshash tovarlar va xizmatlar taklif etuvchi raqobatchilar hamda davlat, kasaba uyushmalari, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari kabi boshqa manfaatdor tomonlar kiradi.

Tashqi makro muhit kompaniyaning uzoq muddatli strategiyasi va jarayonlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan kengroq tendensiyalar va omillarni o'z ichiga oladi. Bularga ijtimoiy-demografik tendensiyalar (masalan, iste'molchilarning xohish-istaklarining o'zgarishi), iqtisodiy sharoitlar (inflyatsiya, ishsizlik), siyosiy va huquqiy omillar (qonunchilik, soliq siyosati), texnologik o'zgarishlar (yangi texnologiyalar, raqamlashtirish, innovatsiyalar) va ekologik muammolari (atrof-muhitni muhofaza qilish) kiradi.

Tashqi mikro va makro muhitni tushunish va tahlil qilish kompaniyalarga o'zgaruvchan bozor sharoitlariga moslashishga, tendensiyalarni bashorat qilishga va samarali rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishga yordam beradi.

Korxona faoliyatiga ichki omillar, tashqi mikro va tashqi makro omillar bilan birga, geosiyosiy, geoiqtisodiy va bozor muhiti omillari ham ta'sir etadi. Barcha omillarning korxonaga ta'siri 1-rasmda umumlashtirilgan holda ifodalangan.

Tashqi makro muhit omillarini (imkoniyatlarni va tahdidlarni) yanada aniqroq va muvozanatli baholash uchun ETOM, QUEST va PESTEL modellaridan foydalanish mumkin.

ETOM (Enhanced Telecom Operations Map) modeli telekommunikatsiya sohasidagi operatsiyalar va jarayonlarni boshqarish uchun TeleManagement Forum (TM Forum) tomonidan ishlab chiqilgan standart asosdir. U telekommunikatsiya kompaniyasining muvaffaqiyatli ishlashi uchun zarur bo'lgan asosiy biznes jarayonlari va funksiyalarini tavsiflaydi, kompaniya operatsiyalarini strategik boshqaruvdan operatsion jarayonlargacha bo'lgan qatlamlarga ajratadi. U mahsulot va xizmatlarni boshqarish, mijozlar tajribasini boshqarish, resurslarni boshqarish, buyurtmalarni boshqarish va boshqalar kabi sohalarni o'z ichiga oladi. ETOM modelini qo'llash kompaniyalarga o'z faoliyatini optimallashtirish, risklarni boshqarishni yaxshilash, taqdim etilayotgan xizmatlar samaradorligi va sifatini oshirish, xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi. Shuningdek, u barcha sanoat ishtirokchilari uchun biznes tilini tushunishni ta'minlaydi, kompaniyalar o'rtasidagi aloqani soddalashtiradi va jarayonlarni standartlashtiradi.

QUEST (Quality, Understanding, Engagement, Success, Time) modeli loyihani muvaffaqiyatli amalga oshirishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va tahlil qilish uchun foydalaniladi. QUEST qisqartmasidagi har bir harf mazkur tahlil usulining tarkibini ifodalaydi:

1 Muallif tomonidan iqtisodiy adabiyotlarni yigirish asosida tuzildi.



Quality (sifat): mijozlar talablariga va sanoat standartlariga javob beradigan yuqori sifatli mahsulot yoki xizmatni ta'minlash.

Understanding (tushunish): Loyihaning maqsad va vazifalarini, shuningdek, barcha manfaatdor tomonlarning talablari va umidlarini chuqur tushunish.


Engagement (ishtirok etish): loyihaning barcha ishtirokchilarini maksimal darajada jalb qilish va qo'llab-quvvatlash, o'zaro samarali munosabatni tashkil etish.

Success (muvaffaqiyat): belgilangan budjet va muddatlarda belgilangan maqsadlarga erishish va rejalashtirilgan natijalarga erishish.

Time (vaqt): loyiha vaqtini samarali boshqarish, vazifalarni bajarish uchun qat'iy muddatlar belgilash va unga amal qilish hamda tayyor mahsulotni o'z vaqtida yetkazib berish.

QUEST modeli loyiha menejeri va loyiha jamoasiga loyihaning joriy holatini baholashda, diqqatni talab qiladigan asosiy yo'nalishlarni aniqlashda va loyihani muvaffaqiyatli yakunlash uchun harakat rejasini ishlab chiqishda yordam beradi.

PESTEL modeli bo'yicha tashqi makro muhit omillari (siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy, texnologik, ekologik va huquqiy omillar)ning guruhlariga bo'linishi 2-rasmda berilgan.



2-rasm. PESTEL modeli bo'yicha omillarning guruhlariga bo'linishi²

2 Муаллиф ишланмаси. Изоҳ: турли соҳалардаги корхоналарга турли макро муҳит омилларнинг таъсири ҳисобга олган ҳолда омиллар рўйхати аниқланади.



PESTEL modeli orqali tahlil qilishning asosiy maqsadi – tashqi makro muhit omillarining, investitsiya muhitining korxona faoliyatiga ta'sirini o'rganishdan iborat, bu tahlil asosida korxonaning uzoq muddatli (odatda 3-10 yillik) strategiyasini shakllantirishga ta'siri tahlil qilinadi.

PESTEL qisqartmasi inglizcha so'zlardan tuzilgan bo'lib, quyidagi tashqi makro muhit omillarining korxona faoliyatiga ta'siri tahlil qilib baholanadi:

- Siyosiy (R – political) omillar;
- Iqtisodiy (Ye – economic) omillar;
- Ijtimoiy-madaniy (S – socio-cultural) omillar;
- Texnologik (T – technologic) omillar;
- Ekologik (Ye – ecologic) omillar;
- Huquqiy (L – legal) omillar.

Barcha omillarning makro muhit omillari bo'lishi tasodifiy emas. PESTEL tahlili natijasida korxonaning bozordagi o'rni haqida umumiy xulosalarga ega bo'linadi.

PESTEL modeli tahlili ko'proq tanish bo'lgan SWOT tahliliga o'xshab ketadi: avvalo PESTEL matritsasi tuziladi, uning hujayralariga korxonaga eng ko'p ta'sir qiladigan tashqi makro muhit omillari joylanadi. Tahlil jarayonida tanlangan omillarning o'zgarishi va ta'siri bo'yicha prognozlarga to'liq javob beradigan korxona strategiyasi ishlab chiqiladi.

Siyosiy omillarni tahlil qilishda siyosatning mintaqa darajasida, davlat darajasida va global darajada biznes muhitni shakllantirishda muhim rol o'ynashini hisobga olish kerak. Biror qonunning qabul qilinishi natijasida, muayyan biznesni yuritish istiqbollari cheklanishi mumkin, yoki aksincha, korxona uchun yangi imkoniyatlar ochilishi mumkin.

Quyidagi siyosiy omillarni doimo kuzatib borish kerak:

- global siyosiy vaziyat. Qaysi davlatlar o'zaro yaxshi munosabatda, qaysilari o'rtasidagi kelishmovchiliklar mavjud yoki qaysi davlatlar harbiy amaliyotlar va siyosiy sanksiyalar maydoniga aylanishi mumkin;
- korxona joylashgan mamlakatning tashqi siyosati;
- mamlakatning turli uyushmalar va jamiyatlarga a'zo bo'lishi yoki a'zolikdan chiqishi (bu yerda korxona o'sishi uchun ko'plab imkoniyatlar yashiringan);
- davlat darajasidagi ichki siyosat;
- soliq siyosati;
- davlatning tarmoqqa ta'sir darajasi, uning tarmoqqa munosabati;
- davlatning xorijiy kapitalga munosabati, investitsiya jarayonlariga ta'sir darajasi;
- muayyan hududlarni davlat tomonidan subsidiyalash, hududlar uchun qonuniy imtiyozlar;
- ma'lumotlarni oshkor qilish, ikki tomonlama soliqqa tortishning oldini olish bo'yicha turli davlatlararo shartnomalar va boshqalar.

Iqtisodiy omillar guruhining korxonaga ta'siri haqiqatan ham yuqori bo'lgani uchun ularni ayniqsa diqqat bilan ko'rib chiqish kerak bo'ladi. Ularga quyidagi omillar kiradi:

- YAIM dinamikasi;
- inflyatsiya darajasi;
- qayta moliyalash stavkasi va unga bog'liq bank sektoridagi tegishli ko'rsatkichlar dinamikasi;
- milliy valyuta kursining o'zgarishi;
- ishsizlik darajasi;
- aholi daromadlari dinamikasi;
- sanoat bozorlarining o'sishi va to'yinganligi;
- raqobat darajasi;
- korxonaning xarajatlari ta'sir qiluvchi qo'shni bozorlardagi o'zgarishlar dinamikasi;
- sanoatda soliqqa tortish sxemalaridan foydalanish darajasi.

Ijtimoiy-madaniy omillar korxona muvaffaqiyatiga bevosita emas, bilvosita ta'sir qiladi, bularga quyidagilar kiradi:

- demografik ma'lumotlar: tug'ilish darajasi, o'lim darajasi, aholining yosh tarkibi, migratsiya dinamikasi;
- aholining turmush darajasi, o'rtacha ish haqi;
- urf-odatlar va qadriyatlar, belgilangan iste'mol normalari;
- kadrlarning ta'lim darajasi, malakasi;
- aholining mehnat qobiliyati va mehnat unumdorligi.

Texnologik omillar texnologik taraqqiyot jadallashgani sari ko'proq qiymatga ega bo'lib, uning biznesning barcha sohalariga, hatto eng texnologik bo'lmagan sohalariga ham ta'sir qilish darajasi oshib bormoqda, ularga quyidagilar kiradi:

- ilmiy kashfiyotlar, yangi texnologiyalar;
- patent qonunchiligi va sanoatdagi o'zgarishlar;



- internet va mobil texnologiyalarning sanoatga ta'siri;
- raqobatchilarning ilmiy-tadqiqot ishlariga xarajatlari.

Ekologik omillarga quyidagilar kiradi:

- Iqlim o'zgarishi, tabiiy ofatlar;
- Qayta ishlash, karbonat angidrid gazi qoplangan hudud, foydalaniladigan yoki ta'qiqlangan material tendensiyalari;

- Ekologik siyosat, atrof-muhitni ifloslanishi bilan bog'liq qonunlar;
- Korporativ ekologik javobgarlik.

Huquqiy omillarga quyidagilar kiradi:

- Ma'lumotlardan foydalanish, mehnat qilish, ekologiya, intellektual mulkni va iste'molchi huquqlarini himoya qilish kabi qonunlar;
- Soliq qonunchiligi;
- Mehnat huquqi;
- Xalqaro va savdo qoidalari.

Turli sohalardagi turli korxonalarga omillarning ta'siri bir xil bo'lmaganligi sababli, korxona o'zining faoliyatiga ta'sir etuvchi asosiy omillar ro'yxatini har doim mustaqil ravishda belgilashi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

PESTEL tahlilini o'tkazish korxona istiqbolini to'g'ri belgilash va uning rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda va demakki, korxona faoliyatiga investitsiya muhitining ta'siri tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi, ya'ni:

Birinchidan, korxonaning tashqi muhitini, uning imkoniyatlari va tahdidlarini yaxshiroq tushunish uchun PESTEL tahlilidan foydalaniladi. Cheklangan ma'lumotlar va subyektiv fikrlarga asoslangan ko'r-ko'rona biznes yuritish boshlang'ich loyihalarda, kichik biznesda qo'l kelishi mumkin, ammo o'rta va yirik biznesda hamda muhim va strategik investitsiya loyihalari uchun puxta va kompleks tahlil o'tkazilishi kerak. PESTEL tahlilini qo'llash orqali korxona tashqi muhitning imkoniyatlari va tahdidlarini aniqlab, o'zini kelgusi xatolardan himoya qiladi.

Ikkinchidan, korxona strategiyasini belgilash uchun PESTEL tahlilidan foydalaniladi. Hech kimga sir emaski, puxta ishlab chiqilgan strategiyaga ega korxona raqobat kurashida ustun bo'ladi, chunki bunday korxonada bir-biriga zid va qarama-qarshi qarorlar qabul qilinmaydi.

PESTEL tahlilini o'tkazish korxonaning rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi, ya'ni bu strategiyada quyidagilar aks ettiriladi:

- korxonaning kelgusi yillarda amalga oshiradigan harakatlari;
- korxona ishlab chiqaradigan mahsulotlari;
- korxona qaysi hududlarda faoliyat yuritishi;
- korxona amalga oshiradigan investitsiyalar yoki aksincha, tashqaridan jalb qilinadigan moliyaviy resurslar miqdori va manbalari.

PESTEL tahlili orqali bozor qanday imkoniyatlarni taqdim etishini tushungan holda to'g'ri strategiyani tanlash imkoniyatiga ega bo'linadi.

Uchinchidan, PESTEL tahlili korxonada makroiqtisodiy risklarni boshqarish uchun kerakli ma'lumotlarini taqdim etadi. Mazkur tahlil vositasi makroiqtisodiy risklarni boshqarishda korxonalarga ularning faoliyatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan tashqi omillarni to'liqroq baholash imkonini beradi. PESTEL modeli bo'yicha omillarning guruhlarga har birini tahlil qilish korxonalarga potensial tahdidlarni (masalan, qonunchilikdagi o'zgarishlar, iqtisodiy sharoitlarning yomonlashuvi kabilarni) va imkoniyatlarni (masalan, iste'molchilarning afzalliklarini o'zgartirish, yangi texnologiyalarni ishlab chiqish kabilarni) aniqlash imkonini beradi.

Investitsiya muhitini PESTEL modeli asosida tahlil qilinishi muvaffaqiyatli investitsiya qarorlarini qabul qilishga asos bo'ladi. Chunki PESTEL tahlili korxona yoki investitsiya loyihasi ishlayotgan tashqi muhitni baholash va uning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan omillarni aniqlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги ПФ-158-сонли "Ўзбекистон – 2030" стратегияси тўғрисида"ги Фармонининг 49-мақсади (<https://lex.uz/docs/6600413>).
2. Вахабов А.В., Хажибакиев Ш.Х., Муминов Н.Г. Хорижий инвестициялар. Ўқув қўлланма. – Т.: "Молия", 2010. – Б. 153.
3. Ғоziбеков Д.Ғ., Қоралиев Т.М. Инвестиция фаолиятини ташкил этиш ва давлат томонидан тартибга солиш. – Т.: ТМИ, 1993. – Б. 46.



4. Farlex Financial Dictionary. 2009. Farlex 17 Apr. 2024 <https://financial-dictionary.thefreedictionary.com/investment+-climate>
5. Financial Glossary. 2011. Campbell R. Harvey 17 Apr. 2024 <https://financial-dictionary.thefreedictionary.com/investment+-climate>
6. Калугин В.В. Применение методики PESTEL для анализа внешней среды предприятия общественного питания // Экономика: вчера, сегодня, завтра. 2022. Том 12. № 5А. С. 391- 399. DOI: 10.34670/AR.2022.44.37.034

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

